

MILLIY AN'ANALAR VA MILLIY URF-ODATLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

*Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich
Andijon davlat universiteti Umumiy
pedagogika kafedrası v.b.dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Abdullayev Elmurodjon Egamberdi o'g'li
Andijon viloyati shahrixon tumani
42-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

Ushbu maqolada milliy an'analar va milliy urf - odatlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritilib, xalqimizning milliy an'analari va milliy urf-odatlariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliy an'ana, milliy urf-odat, Avesto, halollik, iymon, ma'naviy dunyoqarash, ma'naviyat va madaniyat.

In this article, national traditions and national customs are educational importance was discussed and the national traditions and customs of our people were touched upon.

Key words: national tradition, national tradition, Avesta, honesty, faith, spiritual outlook, spirituality and culture.

В данной статье национальные традиции и национальные обычаи имеют воспитательное значение, обсуждалась важность и были затронуты национальные традиции и обычаи нашего народа.

Ключевые слова: национальная традиция, национальная традиция, Авеста, честность, вера, духовное мировоззрение, духовность и культура.

Xalqimiz tarixdan ma'lumki, barcha zamonlarda o'zining rang-barang va yuksak madaniyati, urf-odati va an'analari bilan boshqa xalqlardan ajralib turgan. Milliy an'analar va udumlarimiz ming yillar davomida yaratilgan va xalqimizning turmush tarziga aylanib ketgan.

Milliy an'analar – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish ko'rinishi. Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir[3]. Ular orqali har bir millat bir davrdagi o'ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, fani, adabiyoti hamda boshqa sohalaridagi erishilgan natijalar va yutuqlarni boshqa davrda yashayotgan avlodlarga etkazadi. Milliy urf-odatlar esa tarixiy-ijtimoiy kategoriya bo'lib, ular muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida avloddan avlodga o'tib kelgan ishlab chiqarish, tirikchilik, xulq-atvor va boshqalarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, rasm-rusumga aylangan munosabatlardir[3]. Urf-odatlar asrlar davomida yashab, kishilarning axloqiy normalariga aylangan holda, ularning qon-qoniga, xatti-harakatiga, kundalik turmushi shakllariga singib ketadi.

Milliy an'analar va milliy urf-odatlar insonlarni tarbiyalashda eng muhim vosita ekanligi bilan ajralib turadi. O'tmishda bosqinchi-mustamlakachilar xalqning ustidan hukmronlik qilish uchun ularni milliy urf-odatlari, an'analari, qadriyatlarini, tili, dini, umuman milliy o'zligidan ayirishga harakat qilganlar. Bizning xalqimiz ham o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida mana shunday harakatlarni boshidan o'tkazdi.

Masalan, qadimgi yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy yurtimizga bostirib kelgan vaqtida ajdodlarimizning ma’naviy boyligi bo‘lgan «Avesto» kitobini ayrim qisimlarini yoqib, yo‘q qilishi bunga misol bo‘la oladi.

Shuningdek, xalqimizni milliy an’ana va urf-odatlaridan mahrum qilish siyosati sho‘rolar mustamlakachiligi davrida ham namoyon bo‘lgan. Ular xalqimiz turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan udumlar, urf-odat va an’analari, turli bayramlari, marosimlari, hattoki, do‘ppisi, sumalagi, beshigini cheklab qo‘yish uchun turli bahonalarni o‘ylab topganlar va ustalik bilan amalga oshirganlar.

«Hosil bayrami», «Xirmon bayrami», «Qovun sayli», gap-gashtaklar, ko‘pkari, nikoh to‘yi va boshqa udumlarimiz «eskilik sarqitlari» deb qoralangan. «Dorboz» kabi milliy xalq o‘yinlarimizga e’tibor berilmagan.

Bularning hammasiga mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng chek qo‘yildi.

Milliy ma’naviyatimiz va madaniyatimizning tarkibiy qismi bo‘lgan urf-odat, an’alarimiz bugungi kunda keng tarzda rivojlanmoqda. Xalqimizning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan va turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan milliy urf-odat, an’alarimizdan kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmondo‘stlik, betob, o‘jiz, qiynalganlarga yordam berish, etimlarning haqini emaslik va boshqa insoniy fazilatlar ham xalqimiz ongi va kundalik hayotida kun sayin rivojlanmoqda. An’ana va urf-odatlar har bir xalqda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. O‘z xalqining urf-odat va an’alarini bilish va hurmat qilish zarurdir. Chunki milliy urf-odat va an’analarga hurmat - o‘z millatiga hurmatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yoshlarimizni har tomonlama etuk insonlar qilib shakllantirish va rivojlantirishda milliy urf-odat va an’analarning o‘rni beqiyos. Har bir yosh avlodni, avvalambor oilada, so‘ngra ta’lim-tarbiyaning keyingi bosqichlarida milliy urf-odat, an’alar ruhida tarbiyalash keng yo‘lga qo‘yildi. Ularda milliy urf-odat va an’alarimizga hurmat tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish tarbitarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shuni aytish kerakki, millat, xalq bor ekan, uning ma’naviy dunyosida milliy jihatlari doim saqlanib qoladi. Xalqimizning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarning o‘ziga xos sharqona axloqiy fazilatlarini, ota-ona, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-ko‘y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog‘liq, ma’naviyati faqat o‘tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

Kattalarga, ota-onalarga hurmat, kamtarlik, xalollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik singari milliy-ma’naviy fazilatlarimiz hamisha barqaror. Chunki bu ma’naviy xislatlar avloddan-avlodga o‘tib qon-qonimizga singib ketgan. Millat bor ekan, uning ma’naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Bugungi kunda yoshlarimizda kelajakka intilish bilan bog‘liq bo‘lgan tashabbus, kuch va g‘ayrat kun sayin rivojlanmoqda. Bu esa o‘z navbatida yoshlarimizda sog‘lom ma’naviy dunyoqarashni shakllanishi va rivojlanishiga zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz.T.O‘zbekiston.2017-y.530-b.

2.Abdullayev M. E. Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish tizimi: p. f. b.f. d. (phd) dis. Farg‘ona – 2022.

3. “Ma’naviyat”: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati.O‘zR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.